| Sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan<br>foydalanan muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi omillar.....        | 860 |
| <b>Sobirxonov Akbarxon Aziz-o'g'i</b>  |     |
| Oziq-ovqat sanoati korxonalarida investitsion salohiyatni shakllantirishning mazmuni va ahamiyati .....  | 865 |
| <b>Xamrayev Nodirbek Ravshanovich</b>  |     |
| O'zbekistonning moliyaviy siyosati: tarkibiy tuzilishi va tahlili .....  | 872 |
| <b>Jabborova Dilafruz Sodiq qizi</b>   |     |
| Institutsiional islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida lizing investitsiyalarini<br>rivojlantirishning nazariy-uslubiy jihatlari .....             | 879 |
| <b>Axmediyeva Aliya Toxtarovna</b>   |     |
| Hududlar rivojlanishini ta'minlashda erkin iqtisodiy zonalarning ahamiyati.....  | 885 |
| <b>Salomat Norova</b>  |     |
| Yo'lovchi tashish xizmatlari sohasida korxona faoliyatini strategik<br>rejalashtirishga ta'sir etuvchi omillari tahlili.....                         | 889 |
| <b>Abarov Mashurbek Ismonaliyevich, Pulatova Gulchexra Erkinovna</b>   |     |



|   |      |
|---|------|
| Anderrayting xizmatining AQSh sug'urta bozorida tutgan o'rni .....<br><b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b>  | 895  |
| Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobtlarni tuzishda aktivlarni qadrsizlanishga tekshirish.....<br><b>Tojiyev Behzod Bekmurod o'g'i</b>   | 900  |
| Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish – muhim yo'naliш .....<br><b>Dushaboyev Mirjalol</b>  | 904  |
| Recreational potential of Uzbekistan and prospects for the development of wellness tourism in the country...<br><b>Amonboyev M., Shaymanova Nigora Yusupovna</b>  | 912  |
| Yashil marketing: tushunchasi, mohiyati, kelib chiqishi, muammolari va istiqbollari .....<br><b>G'anieva Madina Bunyodali qizi, Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna</b>                                      | 916  |
| Innovatsion menejment va raqamli transformatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslari.....<br><b>Quldoshev Asliddin Tursunovich</b>  | 923  |
| Lizing munosabatlarni rivojlantirishda raqamli marketing strategiyalari.....<br><b>Yusupova Feruza Yo'ldoshevna</b>   | 928  |
| Analysis of the Transformation and Development Trends of the Higher Education System in Uzbekistan.....<br><b>Zufarova Nozima Gulamiddinovna</b>  | 934  |
| O'zbekiston investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish.....<br><b>Oybek Elmuratov</b>  | 940  |
| Sifatli ta'lim uchinchи renessansning poydevori sifatida: xorijiy tajriba va tavsiyalar .....<br><b>Zafar Jumayev Ikromiddinovich</b>   | 943  |
| Совершенствование методологии "зеленого" учёта в финансовом менеджменте<br>устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане.....<br><b>Глазова Марина Викторовна</b>                    | 947  |
| Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va<br>ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari .....<br><b>Berkinov B. B.</b>                              | 954  |
| O'rta ta'lim tizimida "o'qituvchi imiji"ni rivojlanish genezisi.....<br><b>Odilova Sitora Sayfiddin qizi</b>  | 962  |
| Роль инвестиций в системе железнодорожного транспорта в Республике Узбекистан .....<br><b>Акбарова Лайло Ушаевна</b>  | 966  |
| Mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida innovatsion marketing<br>texnologiyalaridan foydalanish.....<br><b>Ahmedov Alim Babaniyazovich</b>  | 971  |
| Inson resurslarini rivojlantirishda xorijiy kompaniyalarning tajribasini o'rganish metodologiyasi.....<br><b>Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi</b>                      | 978  |
| Tadbirkorlik muhiti tahlili va uni davlat tomonidan tartibga solish shart-sharoitlari .....<br><b>S. T. Toshaliyeva, A. M. Abduraxmonov</b>   | 981  |
| G'allachilik klasterlarini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari .....<br><b>Ilmuratov Shavkat Maxsumovich</b>   | 986  |
| Innovatsion texnologiyalarda umumishlab chiqarish xarajatlarini strategik<br>boshqaruv hisobini takomillashtirish masalalari .....<br><b>Nasriyeva Zebiniso A'zam kizi, Mavlyanova Dilobar Maxkamovna</b> | 990  |
| Suv resurslaridan foydalanishda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish-davr talabi .....<br><b>Ibroyim Maxkamov</b>  | 995  |
| Tadbirkorlik subyektlari yer-suv resurslaridan foydalanishining hududiy xususiyatlari.....<br><b>Xamidjon Muxamadovich Shaxobov</b>   | 999  |
| Korporativ tuzilmalarda global biznes etikasi va yashil biznes drayverlari.....<br><b>Egamberdiyev Shuxrat Satimbayevich</b>  | 1003 |
| Aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashning ayrim masalalari xususida.....<br><b>Ochilova Maftuna Toshpulat qizi</b>  | 1007 |
| Tijorat banklari faoliyatining joriy holati tahlili .....<br><b>Ergashev Azizzon Avazxon o'g'li</b>   | 1012 |



# AHOLINI QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI XUSUSIDA

Ochilova Maftuna Toshpulat qizi

QarMII tayanch doktoranti



**Annotatsiya:** Ushbu maqola hozirgi kunda O'zbekiston aholisini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash va aholini sohadagi ishlab chiqarish, export va import hisobiga haqiqatdagi iste'mol darajalarini o'rganadi va tahlil qiladi. Aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashdagi muammo va kamchiliklarni tahlil qilib aholini turli qatlamlari sog'lom ovqatlanishiga zamin yaratish uchun tavsiyalar ishlab chiqadi.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi mahsulotlari ta'minoti, tibbiy norma, xalqaro savdo boshqarmasi, sog'lom ovqatlanish standarti, FAO prognozi, qishloq xo'jaligi bozori.

**Abstract:** This article currently studies and analyzes the levels of consumption in reality due to the supply of the population of Uzbekistan with agricultural products and the production, export and import of the population in the industry. Analyzing the problems and disadvantages of providing the population with agricultural products, he develops recommendations to create the basis for healthy nutrition of different segments of the population.

**Key words:** agricultural supply, medical standards, international trade management, healthy nutrition standard, FAO forecast, agricultural market.

**Аннотация:** В данной статье исследуются и анализируются реальные уровни потребления в настоящее время за счет обеспечения населения Узбекистана сельскохозяйственной продукцией и населения за счет производства, экспорта и импорта в отрасли. Анализирует проблемы и недостатки в обеспечении населения сельскохозяйственной продукцией, разрабатывает рекомендации по созданию условий для здорового питания различных слоев населения.

**Ключевые слова:** поставки сельскохозяйственной продукции, медицинские нормы, управление международной торговлей, стандарт здорового питания, прогноз ФАО, сельскохозяйственный рынок.

## KIRISH

Aholi sonining ortishi bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga xususan, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlari ham ortmoqda. 2050-yilga borib dunyo aholisi 9,6 milliardni tashkil etishi bashorat qilinmoqda. Juhon bankining qishloq xo'jaligi bo'yicha yetakchi iqtisodchisi Sergiy Zorya o'z maqolasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning samaradorligi past ekanligini e'lon qilishi hamda aholi sonini keskin o'sishi natijasida 2050-yilga qadar hozirgi darajadan 70% ko'proq mahsulot ishlab chiqarish lozimligi bugungi kunda aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashning hozirgi holatini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Barcha mamlakatlardagi kabi O'zbekiston uchun ham qishloq xo'jaligini rivojlantirish, hosildorlik va sifatni oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sohasida yaratilayotgan mahsulot YAIMning 32 foizini tashkil qilmoqda. Shuningdek, mehnatga layoqatli aholining 27 foizini ish bilan ta'minlovchi qishloq xo'jaligi sanoatining rivojini ta'minlash davlat siyosati darajasiga olib chiqildi. Buning yaqqol isboti sifatida 16.02.2024-yildagi PF-36-sonli "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonini keltirish mumkin.

Bundan tashqari Prezident farmoni bilan O'zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini va sog'lom ovqatlanishni ta'minlashning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasi tasdiqlandi. Uning asosiy yo'naliishlari quyidagilar:

- oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlash hamda aholining barcha qatlamlari sog'lom va faol hayot kechirishi uchun tabiiy, moliyaviy va moddiy resurslardan foydalananishning samarali iqtisodiy va ekologik boshqaruvi tizimlarini joriy qilish;



- erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan mexanizmlar orqali strategik ahamiyatga ega qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari hamda ularning xomashyo zaxiralarini yaratish;
- oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlash jarayonida tabiiy va texnogen ofatlar, global siyosiy va iqtisodiy inqirozlar, pandemiya, harbiy amaliyot va boshqa hodisalarning salbiy ta'siri oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarish, shuningdek, xabardor qilish va monitoring platformasini yaratish va boshqalar<sup>1</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

FAO tashkilotining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning 2000-2021-yillar uchun ishlab chiqqan ma'lumotlariga qaraganda, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlariga qaramay so'nggi yigirma yil ichida umumiyl holatda jahon qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida o'sib borayotgan talabni qondirish uchun barqaror o'sish tendentsiyasi kuzatilgan. Ushbu statistik ma'lumotga ko'ra, 2000-yildan 2021-yilgacha birlamchi ekinlar ishlab chiqarish 54 foizga, go'sht ishlab chiqarish 53 foizga va sut ishlab chiqarish 58 foizga o'sgan. Shuning uchun 2000-yildan beri qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sishi aholi sonining o'sishiga (29 foiz) nisbatan tezroq bo'ldi, bu dehqonchilik faoliyatining kuchayishi (sug'orish, pestitsidlар va o'g'itlardan ko'proq foydalanish va ekin maydonlarini kengaytirish bilan) va ishlab chiqarishning rivojlangan texnologiyalari shu jumladan dehqonchilik amaliyotini takomillashtirish va yuqori mahsuldor ekinlardan foydalanish natijasida sodir bo'lgani ma'lum qilinmoqda<sup>2</sup>.

Rus tadqiqotchilar A.B. Neustroeva, A.N. Shishiginalar esa Saxa Respublikasining (Yakutiya) Arktika mintaqalarida shahar hokimiyatining hozirgi holati va oziq-ovqat ta'minoti muammolari bo'yicha so'roviga asoslanib, Yakut Arktikasining borish qiyin bo'lgan hududlarini oziq-ovqat bilan ta'minlash masalalarini ko'zdan kechirilganda, Rossiyaning erishish qiyin bo'lgan hududlari uchun "Shimoliy yetkazib berish" masalalari eng dolzarbligini asoslab berganlar. Ampirik ma'lumotlarga ko'ra, Yakutianing Arktika mintaqalarining aksariyat aholi punktlari va qishloqlarida taqdim etilayotgan mahsulotlarning yetishmasligi va tor ro'yxati, ularning past sifati va yuqori narxları, oziq-ovqat nazorati yo'qligi, sabzavot do'konları va omborlarning yetishmasligi kabi muammolar mavjudligi e'lon qilindi. Oziq-ovqat narxları yuqori bo'lganligi sababli, eng zaif guruuhlar kambag'al fuqarolar bo'lib, ular orasida bolali oilalar ustunlik qilishini ma'lum qilishgan<sup>3</sup>.

Janet Ranganathan, Richard Waite, Tim Searchinger va Craig Hansonlar bugungi kunning biz ishlab chiqaradigan oziq-ovqat miqdori va 2050-yilda barchani boqish uchun zarur bo'lgan miqdor o'rtaida katta tanqislik mavjudligini asoslab beradilar va shu bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi ishlab ishlab chiqarishida yaraladigan issiqxona gaz chiqindilarini hamda qishloq xo'jaligi amaliyoti uchun o'rmonzorliklarni qirib tashlash amaliyotidan voz kechish zaruriyatini asoslab berdilar.

Rashid Khakimov, Bayjanov Sarsengaliy, Jahongir Rozikov, Murodjon Mamatkulov, Kuatbay Ismailov va Akmal Durmanovlarning IOP konferensiyasining "Yer va atrof muhit ilmi" nomli jurnalida O'zbekiston qishloq xo'jaligi sanoatining hozirgi holati mavzusidagi maqolalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini daladan oxirgi iste'molchigacha yetkazishda bir qator muammolarni, xususan yig'im-terim, tashish, saqlash, qayta ishslash, qadoqlashdagi yuqori xarajatlarni keltirib o'tganlar va ushbu muammolarga yechim sifatida sohada agro-klasterlarni tashkil qilishga bo'lgan zaruriyatni asoslab berganlar.

Bundan tashqari, Toshkent iqtisodiy rivojlanish markazi direktori Y. B. Yusupov ta'kidlaganidek, qishloq xo'jaligi - "davlat tomonidan iqtisodiyotning eng tartibga solinadigan tarmoqlaridan biri. "Uning CABAR.asiadagi maqolasida, u "asosiy yirik qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini va fermerlarining mulkiy huquqlari juda yomon himoyalangan, ularning faoliyatini tartibga solish usullari amalda Sovet o'tmishidan olingan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ishlab chiqarish resurslarining ko'p turlari bozorlar va sektor uchun xizmatlar ishlab chiqil-magan" deb ta'kidlaydi<sup>4</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot manbalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti: <https://stat.uz/ru>, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining rasmiy sayti: <https://agro.uz/ru>, Markaziy Osiyo hududidagi davlatlarning tahliliy sayti: <https://cabar.asia.ru> hisoblanadi. Ulardan analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil metodlari asosida tadqiqot ishida foydalilanigan.

1 Oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasining asosiy yo'nalishlari tasdiqlandi ([kun.uz](http://kun.uz))

2 Agricultural production statistics 2000–2021 ([fao.org](http://fao.org))

3 food-supply-in-the-arctic-municipal-authorities-opinion. A.B. Neustroeva, A.N. Shishigina RUDN Journal of Sociology. ISSN 2313-2272 (print), ISSN 2408-8897 (online)

4 Rashid Khakimov , Bayjanov Sarsengaliy , Jahongir Rozikov, Murodjon Mamatkulov , Kuatbay Ismailov va Akmal Durmanov; IOP Conference Series: Earth and Environmental Science : Current state of agriculture in the republic of Uzbekistan and the need for improving the efficiency of agro-clusters in the fruit and vegetable industry



## ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR


Bir O'zbekiston Respublikasida oxirgi 2 yillikda aholi iste'moli uchun ishlab chiqarilgan asosiy oziq ovqat mahsulotlari hajmi 2022-yildan buyon ancha ortganini ko'rish mumkin (1-jadval). Statistika agentligining xabar berishcha, O'zbekiston iqtisodiyoti 2023-yilda 6 foizga o'sib, 1,07 kvadrillion so'mni (90,8 milliard dollarga yaqin) tashkil etdi. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi 28,98 million so'mga (2468 dollar) o'sdi. Bu 2022-yilga nisbatan 10,4 milliard dollarga ko'pdir<sup>5</sup>. 2023-yilning YalM dagi Qishloq xo'jaligining ham ulushi ortgani kuzatish mumkin. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining hajmi 4,1 foizga oshib, 426,3 trillion so'mni tashkil etdi. Fermer xo'jaliklari toifalari bo'yicha tahlil qilish shuni ko'rsatadi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 63,1 foizi dehqon va yordamchi xo'jaliklar, 29,8 foizi shaxsiy fermer xo'jaliklari, 7,1 foizi qishloq xo'jaligi tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelgani e'lon qilindi. 2030-yilga kelib mamlakatda yetishtirilgan mahsulotlar hajmi 25 mlrd dollarga yetishi kutilmoqda<sup>6</sup>.

**1-jadval: O'zbekistonda aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili**

| Oziq ovqat         | Minimal iste'mol normasi (kg/yil) | 2022 (mln tonna) | 2023 (mln tonna) | 2023-yilning 2022-yilga nisbati % | 2023-yilning minimal iste'mol normaga nisbati |
|--------------------|-----------------------------------|------------------|------------------|-----------------------------------|---|
| Don mahsulotlari   | 99,0                              | 8                | 8,4              | 105                               | 231,9   |
| Kartoshka          | 54,6                              | 3,4              | 3,6              | 105,9                             | 180,1   |
| Sabzavotlar        | 109,2                             | 11,2             | 11,6             | 103,6                             | 290,2   |
| Poliz ekinlari     | 19,6                              | 2,4              | 2,4              | 100                               | 334,5   |
| Meva va rezavorlar | 76,7                              | 3                | 3,1              | 103,3                             | 110,4   |
| Uzum               | 13,9                              | 1,8              | 1,7              | 94,4                              | 334,1   |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston aholisi istemoli uchun iste'mol savatidagi asosiy mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi yetaricha va o'sish tendensiyasiga ega. Iste'mol savatining asosiy tarkibi bo'lgan uzum va poliz ekinlari minimal iste'mol normasidan qariyb 3 barobar, don mahsulotlari xususan un mahsuloti hamda sabzavotlar 2 barobar ko'pligini ko'rishimiz mumkin.

Quyidagi jadvalda 2023-yildagi O'zbekistonning oziq ovqat iste'moli uchun zarur bo'lgan kartoshka, meva, sabzavotlar va poliz ekinlarini aholi jon boshidagi ishlab chiqarish hajmi bir kishi yiliga iste'mol qilishi kerak bo'lgan minimal normalardan ancha yuqori ekanini ko'rishimiz mumkin (1-diagramma).



### 2-diagramma

5 O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti 2023-yilda 1,07 kvadrillion so'mga yetdi – O'zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz

6 Abduraim Toshboyev, Komiljon Bustonov,\* and Sanjar Davlatov. Problems and solutions of ensuring food security in Uzbekistan. E3S Web of Conferences 389, 03036 (2023)



Sog'lom ovqatlanish standarti buyicha minimal poliz ekinlar iste'mol 19,6 kg tashkil qilinishi kerak bo'lganda, 2022-2023-yillarda iste'mol uchun ishlab chiqarilgan poliz ekinlar hajmi aholi jon boshiga 65,5 kg ni tashkil qilgan. Xuddi shu tendensiyani sabzavotlar, meva va kartoshka ishlab chiqarish hajmlari ham ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va hududga olib kirish hajmini ko'rshimiz mumkin (3-jadval). Jadval Xalqaro savdo boshqarmasi tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga asosan tuzilgan. Jadvaldan ko'rinish turibdiki, Qishloq xo'jaligi bozori hajmi oxirgi 4 yil davomidan o'sish tendensiyasiga ega edi. 2020-yildan 2023-yil oralig'ida jami mahaliy ishlab chiqarish hajmi qiymati 5 mln AQSh dollarga oshganini kurish mumkin. Respublikada Umumiy eksport hajmi 2020-2013-yil mobaynida qiymati 700 mln dollarlarga, umumiy import hajmi esa 1 851 mln dollardan 4 mlrd dollarga oshganini ko'rshimiz mumkin.

**3-jadval: Qishloq xo'jaligi bozori hajmi, mln AQSh dollarida<sup>7</sup> (12.01.2023 holatiga ko'ra)**

|                                | 2020   | 2021   | 2022   | 2023   |
|--------------------------------|--------|--------|--------|--------|
| Jami Mahalliy Ishlab Chiqarish | 15,041 | 17,297 | 18,863 | 20,500 |
| Umumiy Eksport hajmi           | 1,336  | 1,372  | 1,632  | 2,000  |
| Umumiy Import hajmi            | 1,851  | 2,510  | 3,393  | 4,000  |
| Amerikadan import hajmi        | 10,4   | 1.9    | 2.3    | N/A    |
| Bozorning umumiy hajmi         | 15,556 | 18,435 | 20,624 | 22,500 |
| Valyuta kurslari               | 10,056 | 10,610 | 11,051 | 11,600 |

Statistika agentligi O'zbekistonning qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmi 2023-yilga kelib 426,3 trillion so'mga yetgani ma'lum qildi. Ushbu ma'lumot qishloq xo'jaligi sanoatida 2022-yilga qaraganda 2023-yil 4,1 % ga oshgani tasdiqlamoqda. Agentlikning ma'lum qilishicha, 2023-yilda O'zbekiston 2,8 million tonna go'sht mahsuloti, 12 million tonna sut hamda 8,5 million dona tuxum ishlab chiqargan. O'tgan yili ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari, xususan don mahsulotlari 8,4 million tonna, kartoshka 3,6 million tonna, sabzavotlar 11,6 million tonna, qovun 2,4 million tonna, mevalar 3,1 million tonna, uzum 1,7 million tonnaga yetgan<sup>8</sup>.

Yuqorida keltirilgan O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdagi o'sish sur'atlari qaramasdan, aholi iste'mol savatchalarining tarkibi juda tor ekanligi O'zbekiston jamiyatining iste'molini himoya qilish federatsiyasi tomonidan o'tkazilgan so'rovnomada yaqqol o'z ifodasini topdi. Savatning asosiy qismini birlamchi mahsulotlar non mahsulotlari, don mahsulotlari, go'sht, sabzavot, qovun, meva, sut mahsulotlari egal-lagan bo'lgan.

Hozirgi FAO tashkilotining prognozlarga qaraganda 2050-yilga kelib o'rtacha kunlik energiyasi rivojlana-yotgan mamalakatlar uchun kishi boshiga 2970 kkalga yetishi mumkin. Shu kabi bashoratlar aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashni birlamchi iste'mol tarkibiga kiradigan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan to'liq hal etib bo'lmasligini ta'kidlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ekinlarni diversifikatsiya qilish, turli xil ekinlarni yetishtirish aholi iste'mol savatchasini boytishga xizmat qilishi mumkin bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashni samaradorligini oshirishda bir qator omillar keng ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan:

1. Qishloq xo'jaligini texnologik jihatidan rivojlantirish uchun sarmoya kiritish;
2. Fermerlarni organik mahsulotlar yetishtirishda, almashinib ekish amaliyotini joriy etishda, atrof muhitni muhofozasida va uzoq muddatli samaradorlikni oshirishda qilgan amaliyotlarni rag'batlantirish;
3. Fermer xo'jaliklarining kredit va sug' urta faoliyatlarini orqali moliyaviy qo'llab quvvatlash;
4. Sohadada ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashish saqlash kabi infratuzilma sharoitlarini takomillash-tirish;
5. Hukumat tomonida sohada hosildor kasalliklarga chidamli hamda ozuqaviy qiymati yuqori bo'lgan ekin navlarini kashf etishda ilmiy tadqiqotlar uchun sarmoya kiritish.

<sup>7</sup> Uzbekistan - Agricultural Sectors (trade.gov)

<sup>8</sup> Uzbekistan's agricultural production volume reached 426.3 trillion UZS in 2023 (kun.uz)



Aholini turli xil qatlamlarini ijtimoiy himoyasi maqsadida arzon va ozuqaviy ahamiyati yuqori bo'lgan oziq-ovqatlar mavjudligini nazorat qilish uchun ko'maklashadigan omillar ga quydagilar kirish mumkin:

- aholi daromadlarini o'sish tendensiyasiga ega bo'lishi;
- oziq ovqat narxlarining hamyonbopligi;
- oziq ovqatlar xaridining geografik qulayligi;
- oziq ovqatlarni saqlash tarqatish va logistik xizmatlarning mavjudligi;
- hukumatning oziq-ovqat bilan bog'liq muammolarni hal qilishda asosiy rol o'ynaydigan siyosatining mavjudligi.

Yuqoridagi tavsiyalar oziq-ovqatlarning doimiy mavjudligini ta'minlashga hamda fermerlarning daromadlari oshirishga xizmat qilishi mumkin.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasining asosiy yo'nalishlari tasdiqlandi (kun.uz)
2. Agricultural production statistics 2000–2021 (fao.org)
3. food-supply-in-the-arctic-municipal-authorities-opinion. A.B. Neustroeva1, A.N. Shishigina2 RUDN Journal of Sociology. ISSN 2313-2272 (print), ISSN 2408-8897 (online)
4. Rashid Khakimov , Bayjanov Sarsengaliy , Jahongir Rozikov, Murodjon Mamatkulov , Kuatbay Ismailov va Akmal Durmanov; IOP Conference Series: Earth and Environmental Science : Current state of agriculture in the republic of Uzbekistan and the need for improving the efficiency of agro-clusters in the fruit and vegetable industry
5. Abduraim Toshboyev, Komiljon Bustonov,\* and Sanjar Davlatov. Problems and solutions of ensuring food security in Uzbekistan. E3S Web of Conferences 389, 03036 (2023)
6. Uzbekistan - Agricultural Sectors (trade.gov)
7. Uzbekistan's agricultural production volume reached 426.3 trillion UZS in 2023 (kun.uz)
8. Djurayev B. et al. Improvement of the modeling system of mineral fertilizer use efficiency in agriculture //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024.– Т. 95.– С. 01002.
9. Tokhirovna S. G. Directions Diversify the Production in Peasant (Dekhkan) Farms //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024.– Т. 3. – №. 3.– С. 110-117.
10. Samiyeva, Gulnoza Tokhirovna. "The Main Tasks Of Farms And Dekhkan Farms In Ensuring Productive Security In Uzbekistan." Journal of Contemporary Issues in Business and Government 2021 (2021).
11. Samiyeva G.T. Qashqadaryo viloyati dehqon xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish istiqbollari // Innovatsion texnologiyalar. – 2020.– №. 3 (39).
12. Khakimov, Rashid, and Samiyeva G. Toxirovna. "Agrarian Sector of the Republic of Uzbekistan in a Way of Development and Features of Enterprise Activity." International Journal on Orange Technologies, vol. 2, no. 10, 11 Oct. 2020, pp. 53-57, doi:10.31149/ijot.v2i2.685

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



## Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.